

ASALARILARNING MAHSULOTLARI VA ULARNING SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATI.

Beshariq tumani 1-son texnikumi

Ta'lim ustalari Xo'jamurotov Oribjon Turg'unovich va

Kamolova Gullolaxon Soliyevna

Annotatsiya: Ushbu tezisda asalari olasidan olinadigan mahsulotlar bilan tanishtirishi, asalari mahsulot shifobaxshlik xususiyatlarini, asal xillari va ularning tarkibini o'rganish ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: asal, asalari gulchangi, propolis, asalari suti, asalari mumi, asalari zahri.

Asalari olasidan olinadigan mahsulotlar.

Asal arabcha so'zdan bol bolib u o'simliklar gulidagi shira (nektar)ning asalari organizmida qayta ishlashidan hosil bo'ladigan mahsulotdir. Asalarileu- asalni uya kataklariga o'zlari uchun oziq qilib g'amlaydi. Asal, rangi, hidi va mazasi jihatidan turlicha bo'ladi, masalan: tiniq rangli, novvot rangli, qo'ng'ir rangli va boshqalar. Asalari 1 kg asal to'plash uchun uyasidan 120-150 ming marotaba uchib chiqishi, kerak bo'ladi. Asalari bir kunda 7.000 ga yaqin o'simlik gullarini changlata oladi. Bundan tashqari asalning 1 kg da 3150 kilokaloriya energiya ajratadi.

Asal o'z tarkibiga ko'ra nektardan farq qiladi. Asalda 80 % dan ko'proq uglevodlar (glyukoza, fruktoza), 0,4 % kul, 13-20 % suv bo'ladi. Asalda inson uchun foydali moddalarning 70 dan ortiq turi bor. Shuningdek, asalda mineral moddalar: kalsiy, natriy, kaliy va boshqa moddalar bo'lib, mikroelementlar, organik kislotalardan olma, limon kislotalari, vitaminlar (B2, B6, RR, S, E, K) borligi aniqlangan. Tabiatdan olinish manbaiga ko'ra gul (nektar) asal va shira (o'simlik barglari va poyalaridan ajraladigan shira) asalga bo'linadi. Guldan olingan asal ham o'simlik turiga qarab beda, yantoq, kungaboqar, g'o'za va boshqa o'simliklarga ajraladi. Asal o'zining ta'mi, hidi, rangi jihatidan, shuningdek qaysi faslda qanday o'simlik gulidan yig'ilganligiga va joyi (tog', o'rmon, vodiya)ga qarab ham

farqlanadi. Eng yaxshi asal tog' asali, chunk! u turli dorivor gullardan yig'ildi. Oq akatsiya, beda, olma, shaftoli va boshqa gulshiraga boy o'simliklar. O'simliklar gulidan to'plangan asal ham sifatli, oftob kam tushadigan o'rmon gullari va turli zaharli dorilar sepiladigan texnika o'simliklari, masfa, kanopdan olingan asal ancha sifatsiz hisoblanadi. Asal mumkatalardan maxsus asalajratgich moslamalar bilan ajratib olinadi.

Asalari gulchangi - asalarilar gullardan yig'gan va mumkatalarga zichlagan, ustidan asal qo'yilgan gul changlari. Katakda gulchangning asal shimilgan yuqori qavati havoni o'tkazmaydi. Anaerob sharoitlarda l'cnnentlar, bakteriyalar, achitqi zamburugMar ta'sirida katakda sut kislotasi miqdori ortib boradi va gulclianglar aralashmasi asal ishtirokida asalari gulchangi (perga) ga aylanadi. Asalari gulchangi tarkibida 13-60 % oqsillar, 25-70 % qand, yogMar, mineral tuzlar, vitaminlar, fermentlar, gormonlar bor. Asalari gulchangi asalarilar uchun qimmatli oqsiluglevodli ozuqa hisoblanadi. Asalarilar, ayniqsa, bahor paytida oilani o'stirish davrida gulchangni ko'p sarflaydilar. Uning bahorda taqchilligi asalari oilalasalari ko'payishini to'xtatib qo'yadi. Bir yilda bir asalari oilasi 20-30 kg gulchang iste'mol qiladi. Asalari gullaridan olingan asalari gulchangi tibbiyotda yurak, oshqozon ichak, buyrak, jigar va kamqonlik kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Propolis-yelimga o'xshash yopishqoq moddadan iborat. Propolisning kelib chiqishi aniq o'rganilmagan. Bu masalada ikki xil fikr yuritilgan. Birinchisi, asalari gulchang bilan ovqatlanganida chang po'stlogida bo'ladigan malhamga o'xshash moddani qusadi va u modda mum bilan aralashib propolisni hosil qiladi. Ikkinchi fikr asalarilar yopishqoq yelimni daraxt tanasidan, kurtaklaridan oladi. Bu yelimga mum, gulchangi qo'shib propolis yaratadi. Asalarilar propolis ajratadigan so'lagi yo'qligi aniqlanganligi uchun, asalarilar propolisni daraxtlar tanasidan, kurtaklaridan olish fikri to'g'ri deb hisoblanadi.

Propolisni, asalarilar kuz faslida sovuq tushishi arafasida, asalari xonang hamma yoriqchalarini suvash uchun ishlatadi. Asalari xona eshikchalarini, bir necha

tor yo'l qoldirib, boshqa qismini propolis bilan berkitib qo'yadi. Shuningdek asalarilar propolisni katakchalami yaltiratish uchun ham ishlatadi.

Asalari suti - ishchi asalarilar soMak bezlaridan ishlanib chiqadi. Asalari suti juda to'yimli va tez hazm boMadi. Ona asalari tuxum qo'yib yurganida, ishchi asalarilar ona asalarini yonida yurib hartumchalari yordamida uni oziqlantiradi.

Qurtchalasalari hamma turlari (ona ari, erkak va ishchi asalarilar) tuxumdan chiqqandan keyin faqat 3 kun asalari suti bilan, ishchi va erkak asalari qurtchalari uchinchi kundan boshlab gulchang va asal aralashmasi bilan boqiladi. UrugMangan tuxum doimo asalari suti bilan lH)qilganligi uchun undan ona asalari yetilib chiqadi.

Asalari suti tibbiyot va kosmetikada keng ishlatiladi. Asalari sutini yig'ish ancha noqulayliklar yaratadi. Uni yig'ish uchun normal oilaning ona asalarisini olib yetimlatish kerak. Yetim oila onadonlar ko'rishga kirishadi. Onadondagi qurtchani boqish uchun qo'yilgan sutni kichkina oyna qoshiqcha bilan olib qoraytirilgan oynali idishga solinadi.

Asalari mumi ishchi asalarilar mum bezlarida ishlab chiqaradigan yog'simon suyuqlik. Asalari mum oynachalarida joylashgan mayda teshikchalar orqali tashqariga chiqib, havo ta'sirida qotadi va och sariq plastinka ko'rinishga keladi. Mumni faqat yosh asalarilar (10-20 kungacha bo'lgan yoshdagi) ishlab chiqaradi. Mavsum davomida bitta oila 0,8-2 kg gacha mum ishlab chiqarishi mumkin. Mum tarkibida 300 dan oshiq elementlar boMgan murakkab aralashma bo'lib, ular murakkab efirlar aralashmasi (75 % gacha), yog' kislotalari, uglevodorodlardan iborat.

Asalari mahsulotl asalari shifobaxshlik xususiyati.

Ko'xna zamonlardan buyon asalning shifobaxshligi to'g'risida mashhur tabiblar Misr Fir'avini Tutanhamon qabrida allaqanday modda bo'lgan idish topilgan. Eng qiziqarlisi, oradan 3000 yil o'tsa ham o'z xususiyatini yo'qotmagan bu modda asal ekanligi ma'lum boMgan. Qadim zamondan beri xalq tibbiyotida, insonni har xil kasalliklardan davolashda asalari zahri, gulchangi, ona suti, mum va

asal mahsulotlari ishlatilgan. Asal qo'shib tayyorlangan dori-darmonlarni inson organizmi yaxshi qabul qiladi.

Agar sizni kuchli yo'tal bezovta qilsa.

Nonushta, tushlik kechki ovqatdan oldin va keyin; 1 oshqoshiqdan sharbatni kuniga 6 marta 6 oshqoshiq ichish kerak bo'ladi.

Shamollash, yutal va gripp kasalligi bezovta qilsa.

Yaxshi yuvilgan turpni uchini kesib, ichini o'yib chuqurlik yasash kerak. Yasalgan chuqurlikka 2 oshqoshiq suyuq asal qo'yib, 4 soat saqianadi. Turp suvi bilan aralashgan asaini har kuni ovqat oldidan 3 mahal oshqoshiqda kattalar, 3 choy qoshig'ida bolalar qabul qilishi kerak.

Oshqozon og'rigida ishlatish mumkin bo'lgan usullardan biri.

Buning uchun 500 g asal, 500 ml otquloq (podorojnik) suvini 20 daqiqa past olovda qaynatiladi. Sovutib 1 oshqoshiqdan ovqatdan 30 daqiqa oldin bir kunda uch mahal iste'mol qilinadi.

Buyrakda qum bo'lganida. 1/1 asal bilan sedana aralashtirib bir kunda bir choy qoshiq 3 mahal ichish kerak. 100 g zaytun yog'i, 2 limon sharbatini 100 g asalga qo'shib aralashtirib, bir kunda uch marta oshqoshiqda iste'mol qilinadi.

Ona asarlari sutining xususiyatlari:

Uyqu, ishtaxa, xotira yaxshilanadi, mehnatga qobiliyat oshadi. Ateroskleroz kasalida qulay davolash usullaridan biri hisoblanadi. Infeksiyalarga qarshilik kuchayadi. Jinsiy quvvatni oshiradi, bepushtlik va jinsiy ojizlikni davolaydi. Buyrak osti bezlari faolligini kuchaytiradi.

Gulchangining o'zini qabul qilish va asal bilan iste'mol qilishi qon- (omir, yurak kasalliklarida, qon bosimi oshishida, qonda xolesterin miqdorini pasayishidei, ovqatni hazm qilishda yaxshi natija beradi. Gulchangi ichakdagi mikro organizmlarni o'sishini to'xtatadi va muntazam ravishda ushlab turadi. Ular gastrit, ich ketishi va ich iqlotishiga qarshi foydalidir.

Gulchangi oshqozon va ichak yara kasalliklari davolanishida ishltiladi. Gulchangi saraton va o'sma kasalliklarida boshqa dorilar bilan birgalikda ishlatilganda samarali natija beradi.

Soch to'kilishini davolash. 200 g gulchangini 100 g suvga bitta tuxum sarig'i bilan aralashtirib, boshga 15 daqiqa surtib qo'yiladi. Keyin iliq SUV bilan yuvib tashlanadi.

Propolis ko'p kasalliklarni davolashda katta ahamiyatga ega.

Propolis bezarar bo'lib, u kimyoterapiyadan ham yaxshiroq natija beradi. Propolis boshqa dorivor gilyohlar bilan qo'llanganda yaxshi natija beradi. Propolisning xususiyatlari ko'payadi va sun'iy dorilarga xos bo'lgan nojuya ta'sir qilish kamayadi.

Propolis suvi virus, mikroby, zamburug'larga qarshi ishlatiladi. Shamollashda ham yaxshi natija beradi. Teri kuyganida yaralarga surtiladi.

Propolisli malham. Buning uchun 15-20 g propolis olinib yaxshilab maydalanib, emalli idishga solib quyuyq holga kelguncha qaynatiladi.

Asalari zahari, apitoksin (lot. apis-asalari, yun. toxikon-zahar) ishchi asalarilar tanasidagi ipsimon bezlari ajratadigan o'tkir hidli achchiq, och sariq, shaffof suyuqlikdir. Asalari zahari tarkibida biologik faol moddalar, fermentlar, erkin aminokislotalar, chumoli, xlorid, ortofosfat kislotalari, gistamin, xolin, triptofan, oltingugurt, magniy fosfat va boshqa moddalar bor. Asalari zahari tarkibidagi ta'sir qiluvchi moddalar gistamin glikozidi, lipidlar, hayvonot saponinlariga yaqin turadigan moddalardan iborat. Zichligi 1,313. Suvdatez, chumoli kislotala va 60 % li spirta sekin eriydi. Asalari chaqqanda 0,2-0,3 mg zahar ajratadi. Asalari chaqqan joyda qattiq og'riq va shish paydo bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Isamuxammedov A.I., Nikadambaev H.K. Asalarichilikni rivojiantirish asoslari. - Toshkent: «Sharq», 2013.
2. Qahramonov B.A., Isamuhammedov A.I., Ballasov. U.Sh., Isamuhammedov., S.Sh., To'rayev. O.S. Asalarichilik. - Toshkent, 2012.

3. Richard M., "Biology of thai nonevbees natural history and threats".- USA, 2016.
4. Shnelgrave Z. Queen rearing. - London, 2001.
5. Zaidlow J., Eckert J. Queen rearing. - Hamilton, 2009. 6. Schramm E. Morphologische untersuchungen auf nachschaffiing konginnen der honugbuene. - Leipzig, Bienenzeitung 71 (4), 2007.